

«OTA-ONALAR VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING O'SMIRLARDAGU AGRESSIV XULQ SHAKLLANISHIGA TA'SIRI»

Bo'riyeva Madina Abdullayevna

O'zbekiston Respublikasi Milliy Universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Hozirgi kunda o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlar muammosi dolzarb muammolardan biridir. Bunga esa so'nggi vaqtarda o'smirlar va ularning ota-onalari orasida yuz berayotgan va oilaviy munosabatlar xarakteriga ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning oshishi sabab bo'la oladi.

Maqolada o'smirlarning o'ziga xos psixofiziologik xulq-atvorlari, oilaviy tarbiyaning xususiyatlari va ularning o'smirlar ijtimoiylashuvidanagi ta'siri ochib berilgan. O'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kelgusida ham o'rganilishi kerak. Oilaviy munosabatlar o'smirlarga ijobiy, shuningdek salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirishda ota-onalar o'zlari va farzandlari o'rtasida kelib chiqqan muammolarni ko'ra bilishlari, ularning ijtimoiy-psixologik, kommunikativ munosabatlarini oshirishlarini to'g'ri yo'naltirishlari, o'smirlarning psixofiziologik xususiyatlarini bilishlari kerak bo'ladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy muommolar, agressiv xulq, psixofiziologik xulq-atvor, oilaviy tarbiya, ijtimoiylashuv, optimallashtirish, kommunikativ munosabatlar.

Аннотация: на статью магистра I курса Национального Университета Республики Узбекистан Буриевой Мадины Абдуллаевны на тему

«Влияние взаимоотношений между родителями и ребёнком на формирование агрессивного поведения подростков»

В настоящее время проблема взаимоотношений подростков с родителями является актуальной. Это объясняется социально-экономическими изменениями, происходящими в последнее время, которые способствуют изменению характера семейных взаимоотношений, росту проблем, возникающих в подростково-родительских отношениях.

В статье раскрыты психофизиологические и поведенческие особенности подростков, особенности семейного воспитания, их влияние на социализацию подростков. Проблема взаимоотношений подростков и родителей требует внимания и дальнейшего исследования. Отношения в семье могут оказывать на подростка как позитивное, так и негативное влияние. Основой оптимизации подростково-родительских отношений является осознание родителями противоречий, возникающих между ними и подростками, ориентация их на повышение социально-психологической и

педагогической культуры и коммуникативное взаимодействие, знание психофизиологических особенностей детей подросткового возраста.

Ключевые слова: социально-экономические проблемы, агрессивное поведение, психофизиологическое поведение, семейное воспитание, социализация, оптимизация, коммуникативные отношения.

“THE COMMUNICATION BETWEEN THE TEENAGERS AND THEIR PARENTS IMPACT ON THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR”

Bo'riyeva Madina Abdullayevna

Uzbekistan National University 1st stage graduate student

Nowadays a teenagers and their parents between their communication a really significant problem in our lives. This can be caused by recent events and family relationships between teenagers and their parents. In addition to we can say the social-economic and their disposition will affect the children .

The article describes the unique psychophysiological behavior of adolescents the characteristics of family upbringing and their influence on adolescents. We have to learn about “The communication between teenagers and their parents”. A family relationship effect a child so hard no matter that's good or nugatory. Parents have to knew everything of their child's life . Moreover they have to talk to them and give them right answer , the true ways they need.

Key words : social economic problems, aggressive behavior, family problems, psychophysiological behavior, socialization, optimization, communicative relationships.

KIRISH

Agressiya (lotincha agressio-hujum) – “yo'naltirilgan salbiy xulq atvor, ijtimoiy muhitdagi qoidalar normal amal qilmaslik, insonlarga jismoniy zarar yetkazish. Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlarga e'tibor juda ham yuqori, lekin aksariyat yoshlarimiz xulq atvorida qo'pollik, jizzakilik va agressiv xatti-harakatlar namoyon bo'layotganligi hech kimga sir emas. Bunday xulq-atvor shakllanguncha bo'lgan davrga e'tibor berib o'rganilsa, oilaviy muhitga, oilaviy tarbiyaga borib taqaladi. O'smirlar va ota onalar o'rtaсидаги munosabatlar muammosi tarbiyaviy tomonдан jiddiy e'tibor talab qiladi. Bu davrda o'smirlar kopincha asabiy buzilishlarni boshdan kechiradlar va bu kabi kichik muamolar ularning kelajakdagi butun hayotiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan komplekslarni rivojlantiradilar. Shu bois, agar siz va farzandlaringiz o'rtaсида kelib chiqadgan mojaroning oldini olmoqchi bolsangiz, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoning ildizlarini diqqat bilan kuzatishingiz va uni hal qilish yo'llarni ishlab chiqishingiz lozim. Chunki, o'smirlik yoshida shaxs

shakllanayotgan bir davrda xulqdagi og'ishlarning asosiy sabablaridan biri bu tarbiyadagi yo'l qo'yilgan xatolar bo'lib qolmoqda. Sog'lom oila muhitida sog'lom yoshlar tarbiyalanadi, ulg'ayadi va kamol topadi. Ma'lumki, yangi dunyoga kelgan chaqoloqning ijtimoiylashuvi, avvalo, oilada amalga oshadi. Aynan shu maskanda bola katta hayotga, ijtimoiy muhitga moslashib, jamiyatdagi me'yorlar va qadriyatlarni o'rganadi. Xalqimizda bejizga "qush uyasida ko'rganini qiladi" "degan maqol bor emas, chunki bola oilada ulg'ayar ekan, u ota-onasining, aka-opalarining, xullas, oila azolarining o'zaro munosabatlardan doimo o'rnak oladi. Aynan oilada bola boshlang'ich ijtimoiylashuvni o'rganadi va katta hayotga qadam qoyadi. Oila azolarining munosabatlari misolida u atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'rganadi. Bolaning notog'ri xulq atvoriga xati-harakatiga ota-onaning ko'rsatgan javobi, aka-uka va opasingilari orasidagi munosabatlар oilada va undan tashqarida bolaning aggressiv xulq-atvorini belgilab beradi, uning o'smirlik va balog'at yillarida atrofdagilarga bo'lgan munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bola agrassiv xatti-harakat turlarini quyida keltirilgan uchta assosiy manbaadan o'rganadi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Bu kabi oilada ota-onsa bilan farzand munosabati ijobiy pisoxolagik muhitda bo'Imaganligi, farzandlar orasidagi kelishmovchiliklar oiladagi janjalar, nizolar va mojarolar, oilaviy ham fikirlilikning, ham jamiyatlikning mavjud bo'Imaganligi bolalarda aggressiv xulq atvorning shakllanishiga omil bo'ladi. Bolalardagi aggressivlik va jaxldorlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitga bog'liq.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqari o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham aggressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'p hollarda, bolalar o'z tengqurlarning xatti-harakatlarini kuzatadilar va o'zlarini aggressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari aggressiv xulqli bolalar o'z tengdoshlari bilan chiqisha olmaydilar va natijada ular tomonidan siqib chiqariladi. Bundan so'ng bolalar o'zlarni yolg'iz his qiladilar va o'zi kabi aggressiv bolalar guruhidan joy topadi, afsuski, bu holat yomon natijalarga olib kelishi mumkun.

3. Omaviy axborot vositalari. U bugungi kunda bolalarga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internet o'z hukumroligini o'rnata olgan deb bemalol aytolamiz. Bolalar internet aloqalari o'z tabiatlariga mos keluvchi va mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqdalar. Shuningdek televizorda turli xil jangari filimlar ko'rsatuvlar ham bolalarning ongiga salbiy ta'sirni ko'rsatmay qolmayapti va bu ularda aggressiv xususiyatlarning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'smirlik yoshida aggressiv xulqning maxsus xususiyatlari katta obro'sining qulashi ko'rinishida tengdoshlari guruhiga bog'liqligi hisoblanadi. Ushbu yoshda aggressiv bo'lish ko`pincha "ko'chalarda maqsadsiz yurib, o'zini kuchli ko'rsatish"ni bildiradi. Har qanday o'smir guruhi sardor tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan o'z tarafdarlari va ertaklariga ega. Masalan, guruhga a'zolik ko'rinishlari juda ommalashgan. Guruhlarning ko`zni qamashtiruvchi "uniforma"si (kiyinish usliblari)

ham ritual xarakterini oladi. Rituallar guruhga mansublik tuyg'usini kuchaytiradi va o'smirga xavfsizlik hissini beradi, miflar esa uning hayotiy faoliyatining g'oyaviy asosi bo'ladi. Miflardan uning ichki guruhli va tashqi agressiyani oqlash uchun foydalaniladi. Xullas, "guruhga mansub bo'limganlarga" nisbatan har qanday kuch ishlatish ko'rinishlarini "ular sotqinlar... biz o'zimizning guruhdagilarni himoya qilishimiz lozim... biz hammani o'zimizni hurmat qilishga majburlashimiz kerak" ko'rinishidagi ishontirish bilan oqlaydilar. Guruhli mif bilan "ilhomlangan" zo'ravonlik o'smirlar tomonidan, qahramonlik va guruhga sodiqlik kabi o'z kuchini tasdiqlash sifatida boshdan kechiriladi. Ayni damda alohida holatlarda tajovuzkor axloqning tashabbuskorlari tajovuz yordamida o'z-o'zini tasdiqlashga, o'zini qabul qildirishga urinuvchi va turli sabablar kuchida moslashmagan alohida o'smir autsayderlar bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tajovuzkor axloq bolalar va o'smir yoshidagilar uchun yetaricha tabiiy holdir. Bundan tashqari, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida agressiv xulq qator muhim vazifalarni bajaradi. Me'yorda u qo'rquvdan ozod qiladi, o'z shaxsiy manfaatlarini himoya qilishga yordamlashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, moslashishga ko'maklashadi. Shu munosabat bilan tajovuzning ikki turi haqida gapirish mumkin: zararsiz - moslashgan va destruktiv - moslashmagan. Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun tajovuzkorlik ko'rinishigina emas, uning natijasi va atrofdagilarning noto'g'ri reaktsiyasi xavflidir. Qachonki agressiv xatti-harakatlar e'tibor, hukmronlik, tan olinish, pul, boshqa afzalliklar bergen taqdirda bolalar va o'smirlarda katta ehtimol bilan kuch madaniyatiga asoslangan, ijtimoiy ishlaydigan va katta odamlar (masalan, jinoiy guruhlar) asosida tuzilgan axloq shakllanadi. Atrofdagilarning tajovuzni kuch bilan bostirishga urinishlari ko'p holatlarda qarama-qarshi kutilgan samaraga olib kelishi barchamizni o'ylashga majbur qiladi.

Shaxsga xos agressiya turlari :

1. To'g'ridan to'g'ri faol agressiya;
2. Bilvosita agressiya;
3. To'g'ridan to'g'ri sust agressiya;
4. Bilvosita sust agressiya.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Oilada otalarning farzandlar bilan muloqotining kamligi, bola bilan ishlash malakasining yetarli emasligi va oilalardagi ajralishlar natijasida farzandlar bilan otalarning o'zaro kelishmovchiliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Demak, ota-onalarning o'smirlar o'rtasida nizolarni bartaraf etishda ota-onalarning farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda nizolarning yuzaga kelmasligi uchun har bir omillarda keltirilgan sabablarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz.

O'zbek oilalarida ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklari, o'z oilasidagi ichki muhitga munosabati, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ota-onalarning farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ota-onalarning farzandlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy,

tarbiyaviy, gender xususiyatlari va jismoniy omillar sabab bo'lishi mumkin ekan, bu omillar ta'siri natijasida oilada ota-onalarning farzandlariga bo'lgan munosabatidagi, oilada farzandning qiz bola va o'g'il bolaga ajratilishi, shu asosda o'zaro munosabatlarni shakllanishi o'rtadagi nizolarni yuzaga chiqishi olib kelishi bilan xarakterlanadi. Har bir oilada ota-onal farzandlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi, farzandini kimlar bilan munosabatda bo'layotganligiga e'tibor berishi, farzandlarni xarakteridagi ijobiy xislatlarini namoyon bo'lishiga, xulqidagi salbiy jihatlarni tuzatishi, ota-onalar farzandlariga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishi, bolani haddan ziyod erkalamaslik, kamsitmasligi, ota-onal farzandlar o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni sabablarini inobatga olish, ular bilan do'stona munosabatda bo'lish va farzandlar bilan ishlashda qat'iy qoidalarga rioya qilish, farzandlarni o'smirlik davrida sodir bo'layotgan o'zgarishlarini inobatga olish, uni shaxs sifatida qabul qilish, ayblamaslik, ularni qilgan ishlari va xatti-harakatlarini tanqid qilmasliklari va bilmagan narsalarini o'rgatishlari tavsiya qilinadi.

XULOSA

Agressiya ichki qo'zg'alish tendensiyasi sifatida – bu shaxs dinamikasining ajralmas bo'lagi. Agressivlik individual xususiyat hisoblanadi. Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi, ya'ni yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridanbebakra qolmagan. Shu ma'noda oila - inson o'z baxti va saodati, orzu-xavaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir. Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog'-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qliki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan boglaydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxтиyor his etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'ricida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007.
2. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-onada va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss.
3. Согинов Н.А Социалтно-психологические особенности довлетворенности браком в узбекской семье: Автореф. дис....канд. психол.
4. Rasulova F.F. O'smirlarda aggressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T.: 2018.
5. -Komilova H.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo'llanma. - T.2008.
6. B.N.Sirliev. N.Ismailova. I.M.Xakimova Stress va Agresiya: O'quv metodik qullanma Toshkent -2014.